

SAIDA ZUNNUNOVA ASARLARIDA FEMINISTIK QARASHLARNING AKS ETTIRILISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653683>

Bazarova Shahlo Shuxratovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

Sharq tillari fakulteti Uzoq sharq tillari kafedrası katta o‘qituvchisi

shaxina@2444.mail.ru

ANNOTATSIYA

Chet tilini o‘rganish yoxud o‘rgatish barobarida tarjima qilish jarayoni ham izchil olib borilayotgan bir paytda o‘zbek adabiyotidagi betakror ijodiy asarlarni tarjima qilish asosiy maqsad sifatida olingan. Shunga binoan o‘zbek adabiyotidagi yorqin vakillarida biri sanalgan Saida Zunnunova haqida uning hayoti, ijod yo‘li, ijodiy asarlari haqida tadqiq qilinadi. Saida Zunnunovaning ijodiy ishlarini istiqloq yillaridan keyin keng tadqiq qilish yo‘lga qo‘yilgan. Shu bilan birga mazkur maqolada adiba haqida yozuvchilarning fikrlari va xotiralari haqida ham lavhalarni ko‘rish mumkin.

Kalit so‘zlar: *adabiyot, ijodiy asar, she‘riy to‘plam, nasr, tarjima, eslatma, xotiralar.*

АННОТАЦИЯ

Основной целью является перевод уникальных произведений узбекской литературы в то время, когда процесс перевода осуществляется параллельно с изучением или преподаванием иностранного языка. В связи с этим будет изучена жизнь, творческий путь и творчество Саиды Зуннуновой, одной из самых ярких представительниц узбекской литературы. Спустя годы независимости творчество Саиды Зуннуновой стало широко изучаться. Спустя годы независимости творчество Саиды Зуннуновой стало широко изучаться. Однако в этой статье вы можете увидеть мысли и воспоминания писателей о писателе.

Ключевые слова: *литература, творчество, сборник стихов, проза, перевод, заметки, воспоминания.*

ABSTRACT

The main goal is to translate unique works of Uzbek literature at a time when the process of translation is carried out along with the study or teaching of a foreign language. In this regard, Saida Zunnunova, one of the brightest representatives of

Uzbek literature, will be studied about her life, career and creative work. After the years of independence, Saida Zunnunova's creative work has been widely studied. However, in this article you can see the thoughts and memories of the writers about the writer.

Keywords: literature, creative work, collection of poems, prose, translation, notes, memories

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zahirida yosh avlodni yetuk qilib tarbiyalash, salohiyatli kadrlar tayyorlash kabi asosiy maqsad yotadi. Shu maqsad sari bugungi kun pedagogi oldida turgan bosh vazifa - yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalash demakdir. Shu sababdan aytish mumkinki, chet tillarini o‘rganish jarayonida nafaqat tilni balki, til bilan bir qatorda adabiyot, madaniyat, urf-odatlarini o‘rganish ham teng olib boriladi. [1]

Tarjima jarayonlarida ham aynan shu tomonlar o‘rganiladi. Ya’ni o‘rganilayotgan chet tilidagi adabiy asarlarni o‘zbek tiliga va aksincha o‘zbek adabiyotining nodir durdonalarini chet tiliga tarjima qilish, ilmiy ishlar olib borish keng ko‘lamda rivojlanib bormoqda. Shu maqsadda o‘zbek adabiyotining betakror ayol yozuvchilaridan vakillaridan biri bo‘lmish Saida Zunnunova haqida ham qator ilmiy ishlar olib borilgan. Biroq sharq tillarida biri bo‘lgan koreys tilida adibaning ishlarini tarjima qilish, koreys o‘quvchisi ommasiga adibaning ishlarini tanishtirib tarjima qilish ilk ilmiy tadqiqotlardan biri sanaladi. Mazkur maqolada dastlab adiba, uning hayot va ijod yo‘li haqida ilmiy mavzuda fikr yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Saida Zunnunova — bir paytning o‘zida shoira hamda yozuvchi sifatida yangi davrayollar o‘zbek adabiyotining betakror asoschilaridan biri.

Saida Zunnunova 1926-yili O‘zbekistonning Andijon shahrida oddiy xizmatchi oilasida tavallud topgan. O‘rtaumta’lim maktabni bitirgandan so‘ng, Andijon Davlat pedagogika institutiga o‘qishga kiradi. Keyin esa O‘rta Osiyo Davlat universitetining filologiya fakultetiga o‘qishga topshirib o‘sha yerda o‘qishini davom ettiradi. O‘qishni bitirgandan keyin Saida Zunnunova turli vaqtlarda o‘sha yillari ma’lum va mashhur bo‘lgan “Gulxan” oynomasi, “O‘zbekiston madaniyati” gazetasi nashriyatida, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasida maslahatchi sifatida faoliyat olib boradi.

Saida Zunnunovaning ijodi haqida gapirar ekanmiz uning ilk she’ri haqida to’xtalmasdan ilojimiz yo’q.1945-yili Andijon viloyati “Paxta fronti” gazetasida bosilganligi haqida manbaalarda xabar berilgan. [4]

Shundan keyin uning bir nechta she’riy to’plamlari jumladan:

- “Qizingiz yozdi” (1948);
- “Yangi she’rlar” (1950);
- “Gullar vodiysi” (1954);
- “Qizlarjon” (1962);
- “She’rlar” (1964);
- “Bir yil uylari” (1967);
- “Nilufar” (1972) singari to’plamlari dimoiy ravishda nashrdan chiqadi.

Saida Zunnunovaninafaqat shoiralik bobida balkio‘zini iqtidorli yozuvchi sifatida ham namoyon qiladi. Ijod qilgan vaqtlari mobaynida uning

- “Gulbahor” (1956);
- “Yangi direktor” (1957);
- “Gulxan” (1958);
- “Olov” (1962);
- “Odamlar orasida” (1964);
- “Oydin ko‘chalar” (1965);

“Sen bilan zavqlanaman” (1972) singariqissa, hikoyalar to’plamlari chop etiladi.Saida Zunnunova nasrida aksariyat hollarda mehnat, oila hayotidan so‘zlaydi. Ulardagi bosh qahramon ayol timsolida namoyon etiladi.“Hurmat belgisi” nishoni Saida Zunnunova mukofotlangan.

NATIJALAR

Biroq adiba hayotida ijod qilish juda qiyin bo‘lganini tarixiy faktlardan ko‘rish mumkin. Jumladan O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi kotibiyatining majlislaridan birida “xalq dushmani ayoli” Saida Zunnunovani (ya’ni Said Ahmad o’sha vaqtlarda “xalq dushmani” sifatida surgun qilnigandi) Uyushmaa’zolidan chetlatish masalasi ko‘tariladi. Tarixiy ma’lumotlar quyidagicha lavha keltirilgan:

Rais Saidani joyidan turg‘izib, uni turli savollar bilan so‘roqqa tutadi, xuddi, u tergovchi misol:

—Nega siz hanuz xalq dushmani bo‘lgano‘z eringizdan voz kechmadingiz? Siz yozuvchilar sha’nigadog‘ tushiryapsiz. Shu sababli, kotibiyat a’zolari eringizdan voz kechishingizni talab qilishyapti.

— Men bunday yo‘l tutaolmayman! - deya javob qiladi Saida. — Siz mendan erimdan voz kechishimni so‘rayapsiz, meni Uyushmadan chiqarib tashlayvering. Men ham o‘z shartimni ilgari suraman. Agar unga ko‘nsangiz, erimdan voz kechaman.

— Gapiring, qanday shart ekan? — so‘raydi rais.

— Erimni ko‘rmoqchiman. Xalq dushmani ekanligini o‘zi aytsin. Shundagina men undan voz kechaman.

— Buning imkoni yo‘q.

Saida qaddini rostlab,

— Hech qanday tashkilot, hech bir inson bunga aralashish huquqiga ega emas...

Shunda Saida majlisni tark etdi. Pochtaga bordi va rais nomiga alanga to‘la xat yozadi. Boshqa konvertga Yozuvchilar uyushmasi tomonidan berilgan ruxsatnomani solib, kadrlar bo‘limiga yuboradi. [3]

Balki, taqdir taqazosi ularni betakro muhabbat tarixi uchun tanlagan. Bu borada Saida Zunnunovaning turmush o‘rtog‘i Said Ahmadning “Topganlarim va Yo‘qotganlarim” xotiralarida adiba haqida shunday deydi: “Men Katta Farg‘onakanali qurilishi davrida Yoshlar gazetasida muxbir bo‘lib ishlardim. Bir kuni andijonlik yosh shoira Saida Zunnunova bilan uchrashib qoldik. U mendan bir nechta kitob so‘radi. Menda ular yo‘q edi, lekin do‘stimdan oldim va Saidaga berib yubordim. Kitoblar shu bo‘yi unda qolib ketdi... Oradan bir qancha vaqt o‘tgach, uyimdagilar Saidaning yaqinlari bilan ko‘rishishdi va to‘yimiz 1949 yilning 28 noyabr sanasiga belgilandi...” [2]

MUHOKAMA

Afsuski, navqiron yosh ikki qalbning baxti uzoqqa cho‘zilmadi. Said Ahmadning o‘zining eslashicha, juda og‘ir kunlarni boshdan kechirgan kezlari Saida Zunnunova doimo bir narsani takrorlar edi: “Aftidan, men mashaqqatlarni ko‘tarish uchun yaralganman...” Buni Saida Zunnunovaning to‘y kuni ham oqshom ko‘ylagini aza ko‘ylagiga almashtirgan payt bilan bog‘lasak bo‘ladi: 1949 yilning 28 noyabr kuni kelinning suyukli ukasi Nasibjon 17 yoshida vafot etadi. Va uning onasi Sabohatxon aya qizining to‘yida davron surish o‘rniga, Andijonga, o‘g‘lining dafn marosimini o‘tkazish uchun qaytib keladi. [4]

Saida Zunnunova tabiati ham ajib bo‘lgan. U feruza rangini nihoyatda yaxshi ko‘rgan. Har safar mehmondorchilikka borganida ham, feruza toshli zirak taqqan. Gohida qo‘lidagi feruza toshli uzukka qarab, jim bo‘lib qolgan. Shunday kezlarda yangi she‘r yoki hikoya yaralar edi. Uning ijodining rangi edi go‘yo. Saida Zunnunovaning o‘zi eslashicha, feruza rang unga yoshlikni, uy tomida o‘tirib, zavq ila tomosha qilgan moviy osmonni eslatar edi.

Saida Zunnunovahayoti ham asar bamisoli: otasi bilan erta vidolashadi, shuning uchun, kichik ukalariga g‘amxo‘rlik qiladi, yoshlik go‘zalligini tushunib yetaolmaydi. Mo‘tabar onasi bo‘lgan Saboxon aya qizlar uyga kelishi bilan, ularni chorsi (ya‘nibelga bog‘lanadigan to‘rtburchak ro‘molcha), do‘ppi tikish bilan mashg‘ul qilar edi. Ular bu orqali ro‘zg‘or uchun pul topishar edi...

Adiba Andijon pedagogika institutini tamomlab, dastlab Izboskan tumanining To‘rtko‘l qishloq maktabida dars bergan.U har hafta yigirma kilometr yo‘l bosib o‘tib, topgan pulini uyigaolib borar edi. Balki, shu odati sabab, Saida turmushga chiqqanidan so‘ng ham turmush o‘rtog‘ining pulini ortiqcha sarflashga ko‘nikaolmagan. [4]

Saida Zunnunova va Said Ahmad o‘zbek adabiyoting chiroyli juftliklaridan biri sifatida o‘zbek o‘quvchilar orasida mashhur. Ularning bosib o‘tgan og‘ir kunlariga qaramasdan juftlik bir-biriga bo‘lgan mehri-muhabbati tahsinga sazovor. Shu sababli o‘tgan yillardan beri o‘zbek kinoijodkorlari tomonidan suratga tishirilgan ”Said va Saida” nomli kino ularning hayot va ijodiga bag‘ishlangan kino sifatida ommalashmoqda. Yozuvchi Said Ahmadning xotirasidan ajoyib bir lavhani ko‘rish mumkin u quyidagicha: “Saida ish stoli ustida biror narsa yozganini eslay olmayman. U bir qo‘li bilan qozondaovqat pishirishi, boshqaqo‘lida she‘r yozishi mumkin edi yoki bir qo‘lida beshik tebratib, tizzisiga daftar qo‘ygancha, yozardi va yozardi...Uyda bir emas, uchta yozuv stoli bor edi, u esa duch kelgan yerda yozib ketardi - to derazaostida yoki dazmol stolida.Ba‘zi she‘rlarini u oynoma muqovasida yozishni boshlagan va telefon daftarida davom ettirgan.So‘ngra, ularni barini to‘plab, ikki nusxada bosma moshinada terib chiqqan”. Yozuvchi Said Ahmadning o‘zi faqat kechasi ijod qilgan. Ishlarini o‘zi tahrirlamaguniga qadar rafiqasiningo‘qishini xohlamagan, shu sababli eshikka: “Saida Zunnunova, hikoya tugadi. O‘qimay turing!”, deb yozgandan keyingina dam olgani ketardi. Ertasi kuni tahrirlab, keyingina SaidaZunnunovagao‘qib berar edi.

Bunga javoban adiba “Men allaqachon o‘qib bo‘ldim. Yaxshi hikoya”, derdi u. Shundan buyon Said Ahmad tahrirlanmagan ishlarini uxlashga ketishdan oldin yashirib qo‘yishni odat qilgan. [2] SaidaZunnunova tahrirlanmagan asarlarini o‘qishda davom etar edi...

Said Ahmad tabiatantanqidni ko‘taraolmagan va kimdir uning ishini tanqid qilishi bilan, u oylab hech narsa yozmasligi mumkin bo‘lgan. Maqtov - uning ruhini ko‘taragan.Buni yaxshi bilgan umr yo‘ldoshi Saida Zunnunova, ko‘chadan har xil “yangiliklar” olib kelardi:

— Men Oybek akani ko‘rdim. Ular sizning hikoyalaringizni xush ko‘rarkanlar. Nima uchun yozishdan to‘xtab qolganingizni so‘radilar.

Said aka bu yolg‘on bo‘lishi mumkin deb o‘ylab qolib, “Bu rost bo‘lsa-chi?”, deb o‘ylanib qolar edi. Oybek akanining ko‘nglini qoldirish mumkin emas, deya yanada yaxshiroq yozishga harakat qilar edi.

Saida Zunnunova ertasi kuni G‘ofur G‘ulomdan yangilik olib kelar edi, keyin Abdullaakadan va shu yo‘sinda turmush o‘rtog‘ining ishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otib turar edi. Tom ma‘noda Saida Zunnunova nafaqat rafiqqa balki, Said Ahmadning ilhom parisi ham bo‘lgan. Ikki yozuvchi bir-biri uchun ilhom parilari bo‘lishgan. Yana bir ajoyib lavhani olib qarajak: 1965 yil “Sharq yulduzi” oynomasida chiqqan “Ufq” romanining ilk kitobiga bo‘lgan tanqidni ko‘rgan Saida Zunnunova shu vaqtning o‘zidayoq bu betlarni yulib tashlagan. Aynan shu davrlarda Said Ahmad romanning ikkinchi bobini yoza boshlagan - tanqidni ko‘rgudak bo‘lsa, u ishini davom ettiraolmas edi. Er-xotin har doim bir-birini avaylar-asrar, ilhomlantirardi va deyarli, o‘ttiz yil birga turmush qurishdi...

XULOSA

Saida haqida ilmiy tadqiqot olib borara ekanmiz u haqda qiziq bir ma‘lumot bor. Saida Zunnunova gullagan jiyda iforini yaxshi ko‘rgan. Said Ahmadning xotiralaridan: “Jiyda gullaganida, uyimizdan uch hovli narida biz har kecha sayrga chiqardik, uning ifori esa butun ko‘chani egallardi. Bizga boshqa qo‘shni ayollar ham qo‘shilishdi va hammamiz birgalikda jiyda daraxti tagidao‘tirardik. Uygakirishdan oldin bir dona xushbo‘y jiyda shoxini yulib kirib, suv solingan bonkaga qo‘yar edik. Butun hovlimiz uning ifori bilan burkanardi. Bunday kunlar Saidaxon yarim tungacha, qo‘lida biror kitob bilan hovlidao‘tirar edi, so‘ngra, qo‘liga daftar olib, she‘r yozishni boshlardi. Uning ko‘p she‘rlari aynan jiyda gullagan davrgato‘g‘ri keladi”. [2]

Jiyda gulining umri qisqa. Bir necha kunga atrofni o‘zining muattar ifori ila to‘yintirib, bu dunyoni “tark etadi”. Uning iforiga to‘ymay, Saidaxon ham keyingi bahorni kuta, “ungacha yetib boramanmi?”, deya yashadi.

Said Ahmadning o‘z xotiralarini davom ettirib: “Bu 1977 yilning bahorida bo‘lgan. Martning o‘rtalaridao‘rik gulladi. Men o‘rikning gullagan shoxidan birini uzdim, olcha tagida gullagan binafshalarni terdim va endigina bosmadan chiqqan “Saralangan asarlar”ning ikkinchi bobi bilan Saidaxonning oldiga kasalxonaga bordim. U avval, nashriyot siyohining isi hali tarqamagan ikkinchi bobni varaqladi. So‘ngra, binafshalarni hidladi. Undan keyinginao‘rik shoxidagi gullarga qaradi.

— Bu hovlimizdagi o‘rikning gullarimi? - so‘radi u.

- Ha, deya javob berdim.
- Marg‘ubaning darvozasidagi jiyda hali gullamadimi? - so‘radi.
- Bir oydan so‘ng gullaydi, deya javob berdim.
- Men esa kasalxonadaligimda gullab qo‘ymasmikin, deya havotirlandim.

Yaxshiyamki, u gullaganda men uyda bo‘laman...

Jiyda gullaganda Saidaxon olamdan ko‘z yumgandi... Bir oydan so‘ng gullagan jiyda shoxini yuldim va uning qabri ustiga qo‘ydim”.Saida Zunnunova 1977 yil 51 yoshni qarshi olib, dunyodan o‘tdi.

Said Ahmaddan rafiqasining o‘limidan so‘ng ko‘pincha: “Nima uchun siz Saidaopaning o‘limidan so‘ng uylanmadingiz?”, deb ko‘p so‘rashardi. Said Ahmad esa: “Men uning oldigayorug‘ yuz bilan bormoqchiman”, deya javob berardi. Yozuvchi rafiqasidan 30 yil ko‘proq umr ko‘rdi! Chunki, navqironligining bir necha yillarida SaidaZunnunova ham Said Ahmadni “xalq dushmani” deb qamashgan vaqti sadoqatini yetarlicha namoyon etgan. Hatto buni adibaning eng mashhur o‘sha biz bilgan “Hay-hay” she‘ri orqali bilsak ham bo‘ladi.

Saida Zunnunovaturmusho‘rtog‘i — Said Ahmad bilanqiz farzandi bor - Nodira Husanxo‘jayeva.

Saida Zunnunova ijodi mustaqillikdan so‘ng chuqur o‘rganila boshlandi, Ayniqsa yaqin yillarda adiba haqida qator ilmiy ishlar olib borilmaoqda. Aytish mumkinki, 2013 yilning 10 iyun kuni Toshkentdagi O‘zbekiston milliy bog‘ida Saida Zunnunova va Said Ahmad haykali barpo etilgan.Bu yozuvchilarga bo‘lgan ehtirom sanaladi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Saida Zunnunova o‘zining ijodi orqali salmoqli durdonalar qoldirdi.Maqsadimiz bu ajoyib asarlarni nafaqat o‘rganish balki, chet tiliga ham tarjima qilib ularni ommalashtirish sanaladi.Biroq har qanday tarjima ishining asosi o‘sha yozuvchi yoxud shoirning o‘zi bilan tanishish hisoblanadi. Shu sabadan mazkur ishimizda Saida Zunnunovahayoti va ijodi haqida keng tanishitirob o‘tishni joiz deb bildik. Adibaning ijod olamidagi betakror she‘r va nasrlarini tarjima qilib koreys o‘quvchilarining ommasiga taqdim etish navbatdagi asosiy ishlarimiz hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni, hujjatlar to‘plami, 2017-y., 6-son

2. Said A. Topganlarim va Yo‘qotganlarim (Xotiralar adabiy o‘ylar) . Sharq ,-T.:2000. – bet 335
3. Xalqaro ochiq jamiyat institutining “Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari” fanlararo dasturi. T., 13 b
4. . Adabiyot: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7- sinfi uchun darslik. / Q. Yo‘ldoshev, B. Qosimov, V.Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. –T.: 2017
5. Abdullayeva, O. (2021) Badiiy asarlarning inson ruhiyatiga ta‘siri. Scientific progress, 1(5), (pp. 272-275)
6. . Sattorov U. U. Madaniyatlararo muloqotda emotsional ekspressivlikning ifodalanishi// Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari. S., 2012: 178-179 b.
7. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.
8. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. Society and Innovation, 2(2), 111-117.
9. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.
10. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand.
11. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.
12. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In Mat. International scientific and creative forum" Youth in science and culture of the XXI century". Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
13. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. Вестник Челябинского государственного университета, (2 (256)), 122-125.
14. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. Общество и инновации, 2(2), 111-117.

15. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в. (pp. 229-231).
16. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80)), 5-10.
17. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 11-18.
18. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
19. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
20. Tuhtasinov, Ilhom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
21. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).
22. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
23. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданият мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
24. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.
25. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
26. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.
27. Djurayev, D. M. Linguo-cultural Approach to Teaching Foreign Languages. International Journal on Integrated Education, 3(12), 240-241.
28. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).

29. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
30. Джураев, Д. М. (2017). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
31. Dilshod, D. (2012). 乌兹别克斯坦与中国重要节日的对比 (Master's thesis, 新疆大学).

Vebsayt

32. <https://baxtiyor.uz/saida-zunnunova-haqida-ma-lumot/>
33. <https://arboblar.uz/uz/people/zunnunova-saida>